

UYUSHMAGAN YOSHLAR ORASIDA UCHRAYDIGAN JINOYATCHILIKLAR KO'RINISHLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Turdimuratov Jasur Nurmamat o'g'li

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18353177>

Annotatsiya. Ushbu mavzuda uyushmagan yoshlar orasida uchraydigan jinoyatchilik ko'rinishlari hamda ularning kelib chiqish sabablari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy turlari — o'g'rilik, bezorilik, giyohvandlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar, zo'ravonlik va boshqa noqonuniy harakatlar yoritib beriladi.

Shuningdek, mazkur jinoyatlarning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, oilaviy muhit, ta'lim va tarbiya muammolari, ishsizlik, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etilmasligi hamda salbiy ijtimoiy muhitning roli tahlil qilinadi. Annotatsiyada uyushmagan yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish, ularni jamiyatga moslashtirish va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyati ham yoritilgan. Mazkur ish yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar, pedagoglar hamda profilaktika sohasidagi tadqiqotchilar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yoshlar, davlat siyosati, huquq-tartibot organlari, jinoyatchilik, «Uyushmagan yoshlar», huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Bugungi kunda dunyo aholisining deyarli 30 foizini yoshlar tashkil qiladi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 60 foizdan oshishi xalqimizning, davlatimizning bebaho boyligidir. Ular uchun barcha shart-sharoit yaratilgan, imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Yoshlarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan ham aytishimiz mumkinki yoshlar—bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. «Uyushmagan yoshlar» tushunchasi haqida so'z borar ekan, ushbu ibora «uyushmagan» va «yoshlar» so'zlari birikmasidan tashkil topgan.

«Uyushmagan» so'zining o'zagi «uyushiq»bo'lib, unga o'zbek tilining izohli lug'atida «uyushgan, jipslashgan, ahil», unga ma'nodoshbo'lgan «uyushma» so'ziga esa «bir maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi» mazmunida izoh berilgan

Demak, mantiqan olib qaraganda, «uyushmagan» so'zi «uyushiq» yoki «uyushma» so'zlarining aksi, ya'ni antonimibo'lib, «jipslashmagan, ahil bo'lmagan, muayyan bir maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish uchun birlashmagan» ma'nolarini anglatadi. Shu o'rinda rus olimi D.M. Kafarovning fikriga qo'shilgan holda aytish kerakki, bevositauyushmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi haqida so'z yuritishdan oldin, avvalambor, uyushmagan yoshlarning o'zini, ularning ongi, xulq-atvori, ijtimoiylashuvi darajasi, shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.[2]

O'zbekistonda oxirgi yillarda yoshlar ishtirokida jinoyatchilikning ortib borayotgani rasmiy doiralarda va huquq-tartibot organlari hisobotlarida ham qayd etilmoqda.

Ko'pchilik mutaxassislar bu holat sababini ishsizlik va iqtisodiy omillarda ko'rsatadi.

Sotsiolog Husniddin Mamadiyevga ko'ra esa, yoshlar orasida ortayotgan jinoyatchilikka asosiy sabab bu omillar emas, balki davlatda ijtimoiy me'yorlar borasida aniq tizimning yo'qligidir. Agar biz o'zbek jamiyati va dunyo tajribasidan kelib chiqsak, har bir jinoyat ortida ijtimoiy omillar yotadi. Bu nazariyalar allaqachon ilm darajasiga chiqib ulgurgan.

Biz yoshlar orasidagi jinoyatchilikni tahlil qilishdan avval jamiyatdagi barcha qatlamlar orasidagi jinoyatchilikni ham ko'rib chiqishimiz kerak. Biz ayollar, erkaklar, voyaga yetmagan yoshlar va boshqa qatlamlar orasidagi jinoyatchilikni bilamiz.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, ijtimoiy qarashlar, yondashuvlarning yetarli emasligi jinoyatchilikning oshishiga sabab bo'ladi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqda, bir ma'lumotga ko'zim tushdi. Unga ko'ra, shu yilda O'zbekistonda yoshlar ishtirokida ro'y bergan jinoyatchilik boshqa yillarga nisbatan ikki barobarga ko'paygan. Jumladan, o'tgan 10 oylik natijalari bo'yicha respublikada 45 mingga yaqin jinoyat sodir etilgan bo'lsa, uning 37-38 foizi yoshlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. O'tgan yili esa bu natija 35 foizni tashkil qilgan. Bu ham katta ko'rsatkich.

Bizda yoshlarning jinoyatchilikka berilib ketishini tahlil qiluvchi va uning omillarini o'rganuvchi ijtimoiy tuzilmalar risoladagidek ishlamaydi. Bu borada ilmiy yondashuvlar yetishmasligi yaqqol ko'rinmoqda.

Bugun yoshlarimizning tafakkuri, mafkurasi va dunyoqarashida juda ko'p bo'shliqlar paydo bo'lyapti. Bu bo'shliqni esa o'tkinchi g'oyalar, o'tkinchi axborotlar to'ldirib boryapti.

Yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq ham sezilyapti. Ayni shu jihatlar yoshlar jinoyatchilik ortishiga sabab bo'lyapti.

Uyushmagan yoshlar o'zining jinoyat sodir etishga moyilligi bilan yoshlarning boshqa qatlamidan ajralib turadi.

Uyushmagan yoshlar orasida zo'ravonlik, bosqinchilik, giyohvandlikka bog'liqlik, internet orqali sodir etiladigan jinoyatlar (kiber jinoyatlar) kabi jinoyatlar ko'p uchraydi va bu holatning sabablari ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ta'limsizlik, oiladagi nosog'lom muhit, jamiyatdan chetlanish, bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil eta olmaslik, shuningdek, anonimlik va g'urur tuyg'usining kuchliligi bilan bog'liq.

Jinoyatchilikning ko'rinishlari:

Zo'ravonlik va qasddan badanga zarar yetkazish: Guruh bo'lib sodir etiladigan janjallar, urush-janjallar.

O'g'irlik va bosqinchilik: Shaxsiy mulkka tajovuz qilish, do'konlardan o'g'irlik qilish.

Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar: Giyohvand moddalarni iste'mol qilish, sotish.

Internet orqali sodir etiladigan jinoyatlar: Kiberbulling, firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash.

Huquqbuzarliklar: Be'mani, tartibsizliklar, jamoat tartibini buzish.

Kelib chiqish sabablari:

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Ishsizlik, qashshoqlik, ijtimoiy himoyaning yo'qligi.

Ta'lim va tarbiya: O'qishni tashlab ketish, professional ta'limning yetishmasligi, ota-ona nazoratining yo'qligi, noto'g'ri axloqiy tarbiya.

Psixologik omillar: O'zini jamiyatdan chetda his qilish, zerikish, stress, ruhiy muammolar, qiziqishsizlik, ma'naviy bo'shliq.

Ijtimoiy muhit: Salbiy ta'sirga beriluvchanlik, do'stlar doirasi, jinoyatchilikka moyil guruhlar qo'shilish.

Huquqiy ongsizlik: Harakatlarining qonuniy oqibatlarini tushunmaslik, mas'uliyat hissini yo'qotish.

Bo'sh vaqtning yo'qligi: Sport, madaniyat, ijod bilan shug'ullanmaslik, ularning o'rnini salbiy faoliyat egallashi.

Mutaxassislar bu hol sababini turlicha izohlaydilar. Advokat Baxtiyor Shohnazarov fikricha, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning asosiy qismi ishsizlik va bekorchilikdan kelib chiqmoqda.

“Bugungi kunda yoshlar o’rtasida asosan O’zbekiston respublikasining jinoyat kodeksining 169-moddasida ko’rsatilgan o’g’rilik jinoyatlari sodir etish ko’plab uchrayapti.

Yana shu moddada ko’rsatilgan talonchilik jinoyatlari, ya’ni ko’cha-ko’ya fuqarolarning qimmatbaho buyumlarini, taqinchoqlarini talonchilik yo’li bilan olib ketish kabi jinoyatlar ko’plab uchrayapti. Bu jinoyatlarning eng ko’p uchrashiga sabab, mana shu yoshlarning o’rtasida hozirgi paytda bo’sh yurganlar, o’qishga bormasdan, o’qishni bitirgandan keyin ish topolmasdan yoki oliy yoki boshqa o’quv yurtlarida o’qishni davom ettirish uchun imkoni bo’lmagan shaxslar, ko’proq mana shunday bekorchi yurgan yoshlar tomonidan jinoyatlar sodir etilyapti”, - deydi advokat Baxtiyor Shohnazarov.

Ayrimlarga ko’ra, O’zbekistondagi bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelgan muhit ham o’smirlar jinoyatchiligining ko’payishiga bois bo’lgan. Tadqiqotchi Salomat Niyozova deydi, “Oiladagi ichkilikbozlikka berilib ketgan otaning tarbiyasi bo’lmaydi, yoki bo’lmasa oilada maishiy... shug’ullanib ketgan onaning tarbiyasi bo’lmaydi. Buning oqibatida bola qarovsiz qoladi, ko’chada tentirab yurishiga to’g’ri keladi. Va qanaqadir yo’llar bilan pul ishlab topish harakatini qiladi. Yoki bo’lmasa, oila boshlig’i bo’lgan ota-onalarning tijorat bilan shug’ullanaman deb xorijiy davlatlarga ketishi ham, natijada bolalarning qarovsiz qolishi va buning oqibatida ham jinoyatlar ko’proq 13-14 yoshda bo’lgan voyaga yetmagan o’smirlar tomonidan sodir qilinmoqda”, -deb hisoblaydi tadqiqotchi

Salomat Niyozova bugungi kunda katta yoshdagilar bilan birga, voyaga yetmaganlar orasida ham jinoyatchilik ko’payganini aytadi. Unga ko’ra, o’smir yoshlar o’zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog’liq jinoyatlar bilan birga birovning joniga qasd qilish va uyushgan jinoyatchilikka ham qo’l urmoqda.

“Mana shu jinoyatlarning bugungi kunda kelib chiqishining o’ziga xos sabablari mavjud.

Ko’pgina holatlarda iqtisodiy jihatlar bilan bog’lab olib ko’rishimiz ham mumkin, lekin ko’proq shu tadqiqot ishlari natijasida shu narsa ma’lum bo’ldiki, atrof-muhitdagi shaxslarning ta’siri, yoki katta yoshdagi shaxslarning voyaga yetmaganlarni jinoyatga jalb qilish holatlari ko’proq uchrarkan. Bir misol ko’rib o’tadigan bo’lsak, qamoqxonalardan qaytib kelgan katta yoshdagi shaxs atrofiga bir to’da o’smir yoshlarni to’plab olib, ularga o’zining jinoyat olamidagi bo’lgan qiziq-qiziq voqealarni so’zlab beradi, yoki bo’lmasa ularga turli xil jinoyatlarni sodir qilish usullarini o’rgatib, ularni qiziqтира boshlaydi. Natijada yoshlar o’rtasida uyushgan guruh tuzilib, bu guruh esa o’zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog’liq bo’lgan oldin mayda jinoyatlarni, keyinchalik esa katta-katta jinoyatlarni sodir qilish holatlarini keltirib chiqarishadi”, - deydi Salomat Niyozova.

Ba’zi yoshlar fikricha, kattalarning bolalarga shaxs o’laroq munosabatda bo’lmashliklari ham yoshlarni jinoyatga boshlovchi omillar sanaladi.

“Ota-ona agar bolani har doim urushib, ko’chaga haydab yuborsa uni, urib-so’ksa, bola, albatta, yomon yo’lga kirib ketadi. Har xil yomon narsalar qilib, chekishni ham boshlaydi siqilganidan, ichishni ham boshlaydi, yomon bolalarga qo’shiladi. Bizning mahallada bir bola turadi, u o’g’rilik qilganda uni qamoqqa o’tqazishgan. Qamoqdan ikki yildan keyin chiqib onasini o’ldirib ketgan”.

“Ota-onasi ko’p pul beradi. Bermay qo’yganda, u o’rganib qolgandan keyin boshlaydi-da o’g’rilik qilishni”.

“Misol uchun o’quvchi dars qilib kelmasa o’qituvchilar ham ba’zida “san hayvonsan... isqirtsan”, - deydi. Shu ham psixologiyasiga ta’sir qiladi va bola ko’ngli ranjiydi va yomon yo’lga kirib ketishi mumkin”, - deyishadi ayrim o’smir yoshlar.

Yoshlar o’rtasida jinoyatchilikning ko’payishi sabablari turlicha bo’lsa-da, shularning biri yoshlar ruhiyatida diniy bo’shliqning paydo bo’lganida, deb hisoblaydi ba’zi dindorlar.

Adabiyotshunos olim Sayfiddin Rafiddin fikricha, o’quv maskanlarida diniy tarbiyaning yo’lga qo’yilishi yoshlarni jinoyatchilikdan qaytarishning bir yo’li bo’lishi mumkin.

“Qur’on oyatlari orqali, Hadisdagi odob-ahloqqa oid juda kop pandu-nasihatlar borki, bugungi kunda bularni yoshlarning ongiga singdirish kerak. Ya’ni, yoshligidan ruhiyatiga qaysi savob, qaysi gunoh kabi bir qancha ilohiy so’zlarni singdirish kerak. Islom ahloqi va odobi, islom madaniyati degan juda katta tushunchalarni bog’chalar, maktablarda, oliy o’quv yurtlariga kiritilib, shular orqali yoshlarni tarbiyalash kerak. Diniy ta’lim, dunyoviy ta’lim har ikkalasi qaysi insonda mujassam bo’lsa, o’shanda bir komillik, kamolot paydo bo’ladi. Xudodan qo’rqmagandan qo’rq, degan bizda bir maqol bor. Demak, yoshlarni avval Xudodan qo’rqitish kerak. Birovning haqini yema, birovni so’kma, birovni urma, Xudo jazo beradi deyish kerak.

Masalan yolg’izlikda ham Xudoning ko’rib turgani, bilib turgani, eshitib turganini bola agar his qilsa, u hech qachon jinoyat qilmaydi”, - deydi adabiyotshunos olim, taqvodor Sayfiddin Rafiddin.

O’zbekiston shahar va qishloqlarida ham yoshlar huquqbuzarligining ko’paygani aksar holda iqtisodiy yetishmovchilik bilan izohlanadi. Biroq dindorlar bu hol yana iymon-e’tiqod bilab bog’liq masala ekanini aytadilar. "Masalan, har xil yetishmovchilik deymiz, lekin qishloqlarda bugungi kunda qancha hayot og’ir bo’lgani bilan to’ylar qadimgiday o’tyapti",- deydi Sayfiddin Rafiddin. "Hech kimning ochlikdan o’lgan joyi yo’q. Faqat bu yerda iymon susayib ketgan. Bu yerda ishonch, mehr, vafo degan narsalar susaygan. Payg’ambarimiz zamonlarida sahobalar hayotiga nazar solsak, shunday bir yetishmovchiliklar bo’lgan ekanki, masalan bitta turshakni, 20 kishi o’tirsa, bir-bir shimib chiqarkan, shunga qanoat qilarkan.

Bilasizmi, iymon-e’tiqod haqqatam mustahkam bo’lsa, har qanday holatda inson gunohga qo’l urmaydi. Chunki bu sahobalar hayotida, yo bo’lmasa ma’lum bir jamiyatlarda, o’sha iymon mustahkamlangan, iymon odamlarning qalbiga, ongiga, shuuriga kirgan payrlar bo’lganki, bu isbotlangan”, - deydi Sayfiddin Rafiddin.

Birinchi marta ijtimoiy xavfi uncha katta bo’lmagan jinoyat sodir etganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum etish jazosini tayinlash, o’sha yosh ruhiyatiga salbiy ta’sir etishi mumkin, deb hisoblaydi ba’zi mutaxassislar.

Qamoq hech qachon kishilarni ijobiy tomonga o’zgarishiga xizmat qilmasligi, bu esa ularning keyingi hayotlarida o’z aksini ko’rsatishi aytiladi. Advokat Baxtiyor Shohnazarovning fikricha, “Mana shu voyaga yetmaganlarning, yoshlarning ruhiyati hali to’la shakllanmaganligi, ularni qandaydir qaltis harakatlar bilan sindirib qo’yish ham hech gap emasligini e’tiborga olgan holda ularning ustidan tergov, sud harakatlarini olib borish kerak. Chunki bilamiz, yoshlar ruhiyati juda ta’sirchan bo’ladi. Ularni sindirib qo’yish ham hech gap emas. Shuning uchun tergov organlari xodimlari ham, qolaversa sud majlisida ham ularning yoshidan kelib chiqqan holda, mana shu jarayonlarga ruhshunoslarni taklif qilgan holda o’tkazish kerak”, - deydi advokat Shohnazarov.

Mutaxassislarga ko’ra, qamoq muddatini o’tab chiqqan ba’zi yoshlarning qayta jinoyat sodir etish hollari kuzatilmoqda. Advokat Baxtiyor Shohnazarov fikricha, buning boisi ularning jamiyatda o’z o’rinlarini topishlari qiyin kechishidadir.

“Haqiqatdan ham kishi qamoqdan chiqqandan keyin unga nisbatan atrofda qilarning munosabati o'zgarib qoladi. Qamoqdan chiqqan shaxslar ham o'zlarini boshqacharoq tutishga harakat qilishadi, odamlarning oldida. Xuddi ular hayotning achchiq-chuchugini ta'tib kelishganu, ularga ortiqcha gap gapirish mumkin emas, degan fikr ham o'rnashib qoladi.

Shuning uchun odamlar ham ular bilam ehtiyotkorlik bilam muomala qilayotganining guvohi bo'lamiz. Lekin hozirgi vaziyatda bilamiz, ish topish ancha muammo, ayniqsa qamoqda o'tirib chiqqan shaxsni ishga olishga hamma korxona-tashkilotlar rahbarlari moyillik ko'rsatavermaydi. Shuning uchun ularni ishga joylashda katta muammolar kelib chiqadi. Bir tomondan ularga taklif qilingan ishlar ham ko'pincha ana shu shaxslarni qanoatlantirmaydi.

Maoshi kam bo'ladi, sharoitlari ularga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun oxir-oqibatda ularning yana jinoyat yo'liga kirishi hollari ham uchraydiki, ularning hammasini iqtisodiyotga, iqtisodiy sabablarga bog'lasa bo'ladi”, - deb hisoblaydi Shohnazarov.

Ba'zi mutaxassislar fikricha, xorijdan kirib kelayotgan jangari filmlar ta'siri ostida ham o'smir yoshlar turli jinoyatlarga qo'l urishmoqda. Ayrim boy oila farzandlarining turli huquqbuzarliklar sodir etishi, iqtisodiy to'q oiladagi ma'naviy qashshoqlik bilan izohlanadi.

So'nggi paytlarda o'smir yoshidagi qizlar orasida jinoyatchilikning ko'payayotgani esa, iqtisodiy nochorlik bilan bog'liqligi aytiladi.

Uyushmagan yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish uchun ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, yoshlarga ta'lim va ish joylarini taklif qilish, ularning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish va huquqiy ta'limni kuchaytirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurasulova Q.R., Niyozova S.S. Jinoyatchilik va jinoyatchi shaxsi muammolari: O'quv qo'llanma. – T., 2006. –B.51
2. Zaripov Z.S., Muxtorov J.S. Maishiy turmushda sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tavsifi va profilaktikasi // Kriminologiya. Maxsus qism: Darslik / Mualliflar jamoasi. — T., 2015. —B. 303
3. G'aniev Sh.A. Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish: Doktorlikdis. ... avtoref. — T., 2016. — B. 30.